

# **Termiz shahrida loyihalar ijrosi va bunyodkorlik ishlaringning borishi bilan tanishildi**



Viloyat hokimi Termiz shahri bo'ylab qator ob'ektlarda olib borilayotgan qurilish ta'mirlash, obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi. Aholi uchun yaratilayotgan qulayliklar, mahalla infratuzilmasini yaxshilash tadbirlarining borishi ko'zdan kechirildi.

"San'at saroyi" hududini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, maysazorlarni parvarishlar uchun sug'orish tizimlarini o'rnatish jarayonlari mas'ullar ishtirokida ko'rib chiqildi. Shu yerning o'zida yo'llarni ta'mirlash va mahallalarda amalga oshirilgan ishlar taqdimoti o'tkazildi.

Shuningdek, bog' qurilishi, "Nuroniyalar maskani", ishlab chiqarish korxonasi faoliyati bilan ham tanishilib, har bir manzilda mas'ullarga tegishli vazifalar belgilab berildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)